
Xotin-qizlar faollariga planshetlar topshirildi

Davlatimiz rahbarining “Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko’rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko’tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o’rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida mahallalarda ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish ishlarini kompleks tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan “oilabay” ishlash, ko’rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning soni va sifatini oshirish maqsadida “Mahallada ijtimoiy xizmat moduli”ni joriy etish bo’yicha bir qator ko’rsatmalar berilgan.

Bugun Farg’ona shahridagi 73 ta mahalla fuqarolar yig’inlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari “Mahallada ijtimoiy xizmat” avtomatlashtirilgan maxsus elektron moduli o’rnatilgan planshetlar bilan ta’minlandilar. Tadbirda shahar hokimining birinchi o’rinbosari Boburjon Mo’minov va bo’lim rahbari Dilshodaxon Xolmatovalar ishtirok etishdi.

Mas’ullar tomonidan xotin-qizlar faollariga mahallalarda “oilabay” tizimini yuritishda, ijtimoiy himoyaga muhtoj, tadbirkorlik qilish istagidagi xotin-qizlarni bazalarga kiritish bo’yicha tavsiyalar berildi.

Farg’ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-01-05 10:23:56